

TOHIR MALIK VA NAVOIY ASARLARIDA PAND-NASIHAT RUHIYATI TASVIRI

Egamberdiyeva Nilufar Quvondiqovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universtiteti

Jurnalistika fakulteti 2 – bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tohir Malik va Navoiy asarlaridagi o‘xshashliklar, pand-nasihat ruhiyatining berilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axloq, xulq, saodat, muluk, tafakkur

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируется сходство в творчестве Тахира Малика и Навои, передача духа панд-увещевания.

ABSTRACT

This article analyzes the similarity between the works of Tahir Malik and Navoi, and the giving of the spirit of advice.

Yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub ma’naviyat va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan “Odamiylik mulki” asarning “Ishq” deb nomlangan ikkinchi fasli adib “Tanlangan asarlari”ning oltinchi jildidan, uchinchi fasli - “Saodat” esa to‘qqizinchi jildidan (Husnu xulq) joy olgan edi. Keyinchalik asar adibning ayrim tuzatish va tahrirlardan so‘ng yaxlit kitob holiga keltirildi.

“Odamiylik Mulki” kitobidan saralab olingan “Husnu xulq” to‘plami dono fikrni, o‘tkir hikmatni, teran tafakkurni, so‘z xazinasining dur-u javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang hikmatli so‘zlarini o‘z ichiga olgan ushbu kitob nutqimizni o‘stiradi, qalbimizda his-hayajon uyg‘otadi, o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga undaydi. Kitobda jamlangan so‘z-u iboralar, aforizmlar muallifning “Odamiylik mulki” kitobidan saralab olingan bo‘lib, u har bir o‘quvchining bilim saviyasini o‘stirib, nutqini ravshan va ta’sirchan, hayot yo‘lini tanlay bilishiga, murakkab jumboq hamda muammolarga to‘g‘ri yechim topishiga yordam beribgina qolmay, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatgo‘y bo‘ladi.

“Husnu xulq” kitobi ishq, baxt, saodat kabi qismlardan iborat bo‘lib, uni buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” dostoni bilan taqqoslab ko‘ramiz.

Asarlarning o‘xshashlik jihatlari shundaki, har ikkala asar ham 3 qismdan iborat bo‘lib ularda pand-nasihat, ta’lim tarbiya, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, halollik kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Quyida Navoiyning “Mahbub ul-qulub” dostoni g‘oyalari haqida ham so‘z ochamiz.

O‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkiri, ma’rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e’tibor bergan. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqtirdi. Alisher Navoiy ilm, ma’rifat haqida ajoyib fikrlarni olg‘a surdi. U aql, ilm insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir deb hisobladi. Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Buyuk so‘z san’atkor va mutafakkiri o‘zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag‘ishlaydi. Shulardan aynan 1500-yilda yaratilgan “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlari bayon etilgani bilan qiziqarlidir. Navoiy bu asarida sabr, qanoat, kamtarinlik, vafo, hayo, karam (muruvvat), saxovat, himmat, olivjanoblik, mardlik, hilm (muloyim tabiatlilik), do‘stlik, ilmga amal qilish, shirinso‘zlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni ulug‘laydi, aksincha, baxillik, badfe’llik, hasadgo‘ylik, chaqimchilik, xasislik, yolg‘onchilik, tamagirlilik, nodonlik (bilimsizlik), takabburlik, mayxo‘rlik (badmastlik), badnafslik (ochko‘zlik) kabi yomon illatlarni qattiq qoralaydi.

“Mahbub ul-qulub” 3 qismdan iborat bo‘lib, kitobning 1-qismi “Halollik ahvoli va afoli va ahvolining kayfiyatida”, ya’ni kishilarning fe’l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida. Navoiy donishmand va murabbiy, ulkan madaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san’at va adabiyotning ahamiyatini targ‘ib qiladi, malakali, iqtidorli o‘qituvchilarni, olimlarni, shoirlarni, san’atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi.

Kitobning 2-qismi, asosan, axloqiy masalalarga bag‘ishlangan. Bu bobda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil qilinadi. To‘g‘rirog‘i, insonda bo‘lishi kerak bo‘lgan odob-axloq haqida gap boradi. Masalan, qanoatni olaylik. Navoiy qanoatli odamlarni sevadi, ularga havasi keladi. Kimki qanoatli bo‘lsa, unday odamni el sevishini, e’zozlashini ta’kidlaydi. Mutafakkir qanoatni bir buloqqa – chashmaga o‘xshatadi. Negaki buloq suvini qancha olgan bilan qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shavkat hosilini beradi. U bir daraxtki, unda qaram bo‘lmaslik va hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze’ haqida ham ko‘p ibratli gaplar aytildi.

“Turli foydali maslahatlar va maqollar” deb nomlagan 3qismida turli tashbehlar berilgan. Bu qismda ko‘proq o‘qish, ilm olish, kasb-kor egasi bo‘lish va boshqa masalalar o‘rtaga tashlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Tohir Malikning aynan “Husnu xulq” kitobida hozirgi zamонави muammolar va ularga yechimlar pand-nasihat ba’zi joylarida hajviya tarzida ham berilgan. Bu, albatta, ijodkorning naqadar kuchli so‘z ustasi va mahorat egasi ekanligini ko‘rsatib beradi. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” dostonida esa bunday nasihatlar she’riy va nasriy usullarda o‘z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

www.Ziyouz.com kutubxonasi

www.kitobxon.com

Tohir Malik „Husnu xulq” kitobi

www.e-libraru.uz